



*Abdurashidova Gavhar Abdurazzoq qizi
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi*

HOZIRGI ZAMON O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK FAOLIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik faoliyati, pedagogik mahorat va tarbiya jarayonlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, pedagogik mahorat, jamoa, tarbiya, innovatsion texnologiyalar, kreativlik, baholash.

O'qituvchi – pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratida "Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash" kabi didaktik qonuniyatlar ta'lim berishning muhim katego-riyalari sifatida e'tirof etilgan. Hozirgi zamon o'qituvchisining kasbiy mahorati bir nechta muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Ularning asosiyлари quyidagilardir:

1. **Pedagogik bilim.** O'qituvchi o'quvchilarini qanday o'qitishni, darslarni qanday tashkil etishni va o'quv jarayonini qanday boshqarishni bilishi zarur. Bu pedagogika, psixologiya, va didaktika sohalaridagi bilimlarni o'z ichiga oladi.

2. **Innovatsion texnologiyalar.** Hozirgi zamonda o'qituvchilar zamonaviy texnologiyalarni, masalan, interaktiv ta'lim vositalarini va onlayn platformalarini samarali foydalanishi kerak.

3. **Maqsadga yo'naltirilgan yondashuv.** Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini hisobga olib, ta'lim berish usullarini moslashtira olish qobiliyati.

4. **Kommunikativ ko'nikmalar.** O'qituvchi o'quvchilar bilan, ota-onalar bilan va hamkasblar bilan samarali muloqot qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bu o'zaro tushunishni va hamkorlikni ta'minlaydi.

5. **Kreativlik va innovatsiya.** O'qituvchilar dars jarayonini qiziqarli va ijodiy qilish uchun yangi g'oyalarni kiritish va yangiliklarni amalga oshirishga qodir bo'lishlari kerak.

6. **Davomiy o'rganish.** O'qituvchilar o'z bilimlarini va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari zarur. Bu, o'qituvchining professional rivojlanishini ta'minlaydi.

7. **Baholash va fikr bildirish.** O'qituvchi o'quvchilarning bilimini, ko'nikmalarini va shaxsiy rivojlanishini baholashda adolatli va obyektiv bo'lishi kerak.

Hozirgi zamon o'qituvchilari uchun ushbu mahoratlar ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shaxsga ta'lim–tarbiya berish nihoyatda murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk arboblari jalb etilgan.

Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni va nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga molik bo'lgan omil ekanligi ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilgan. Bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda. Zamonaviy o'qituvchi ta'limni qanday tashkil etishi zarur?

- avvalo u o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim beradigan fanlardan pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmunan yaxlitligini ta'minlashi;
- pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, o'quv mashg'ulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi;
- ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish mazmuniga mos ravishda pedagogik tizimni loyihalay olishi;



- ta’lim beradigan fanlar turkumini rivojlantirish istiqbollarini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi;
- ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda jahoning rivojlangan mamlakatlarida pedagogika va psixologiya sohasida erishilayotgan ilg‘or tajribalarni amalda modernizatsiya qilgan holda qo‘llashi;
- O‘rta Osiyo mutafakkirlarining boy ma’naviy meroslaridan ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda foydalanishi;
- darsning barcha turlarida, mashg‘ulotlarda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘qitish metodlaridan foydalanishi;
- o‘qitadigan fan turkumi bo‘yicha avtomatlashtirilgan ta’lim tizimi uchun amaliy dasturlar paketini yaratishi lozim.

Zamonaviy o‘qituvchi qiyofasidagi shaxs pedagogik-psixologik jihatdan yuksak tayyorgarlikka ega bo‘lishi uchun, unda quyidagi fazilatlar namoyon bo‘lishi kerak (so‘z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifa, burch va mas’uliyatlarni ifodalaydi):

1. O‘qituvchi mamlakatimizning ijtimoiy va siyosiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni berishi lozim.
2. Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.
3. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi shart.
4. O‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslaridan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi, ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘z faoliyati tashkil etishi zarur.
5. O‘qituvchi ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va axborot tex-nologiyalarining eng samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.
6. O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor va taskilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi davr talabidir.
7. O‘qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativ layoqatni, pedagogik texnika sirlarini (nutq, chehra, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) chuqur o‘zlashtirib olishga erishishi lozim.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Tarbiya xususida taniqli o‘zbek adibi Abdulla Avloniying “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo razolat masalasi” – deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir. O‘qituvchi tarbiyachilik faoliyatining mazmunida, oldinga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. Modern Science and Research, 2(9), 390-394.
2. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. Modern Science and Research, 2(6), 1223-1226.
3. Ikromova, S. (2023). FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS. Modern Science and Research, 2(5), 1009-1014.
4. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O‘RNI. Экономика и социум, (12-2 (103)), 675-678.
5. Ikromova, S. A. (2023). SHAXS OG ‘ISHGAN XULQINING KO ‘RINISHLARI VA DESTRUKTIV AXBOROTLARNING KO ‘RINISHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 528-532.



6. Akbarovna, I. S. (2023). YOSHLARDA DESTRUKTIV G'YOYALARGA QARSHI IMMUNITET HOSIL QILISH OMILLARI.
7. Akbarovna, I. S. (2023). TALABA YOSHLARDA MAFKURA TUSHUNCHASI VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH.
8. Akbarovna, I. S. (2023). O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH.
9. Akbarovna, I. S. (2023). DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari, 1(6), 26-29.
10. Akbarovna, I. S. (2023). MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.
11. Sitora Akbarovna Ikromova. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(9), 50–54.
12. Akbarovna, I. S. (2023). Study of the Formation of Ideological Immunity By Foreign and Russian Researchers. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 235-239.
13. Akbarovna, I. S. (2023). Adolescence during Destructive Behavior Appearances the Problem Learning Condition. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(9), 105-109.
14. Ikromova Sitora Akbarovna. (2023). NEUROPHYSIOLOGY BASIS OF HORMONES. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 68–77.
15. Ikromova Sitora Akbarovna. (2023). RESEARCH METHODS OF YOUTH PSYCHOLOGY. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12).
16. Ikromova Sitora Akbarovna. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information in Adolescents. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 119–122.
17. Ikromova, S. A. FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS.
18. Tursunbek Sadriddinovich Jalolov. (2023). ARTIFICIAL INTELLIGENCE PYTHON (PYTORCH). Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research , 1(3), 123-126.
19. Tursunbek Sadriddinovich Jalolov. (2023). ADVANTAGES OF DJANGO FEMWORKER. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12).